

DOI: 10.5281/zenodo.15584914

Link: <https://zenodo.org/records/15584914>

## IQLIM O‘ZGARISHI GLOABAL MUAMMOALARNI KELTIRIB CHIQAARMOQDA

*Payazov Murod Maksudovich*

*“Menejment va marketing” kafedrası dotsenti*

*Farg‘ona davlat texnika universiteti*

*Email: [fayz19700308@gmail.com](mailto:fayz19700308@gmail.com)*

*(+998)-90-533-47-62*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola global iqlim o‘zgarishining hozirgi sharoitidagi haolati, Qanday sabablari iqlim o‘zgarishlariga sabab bo‘layotganligi. Iqlim o‘zgarishning salbiy oqibatları. Iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘siriga qarshi jahon davlatlarida, Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) shuningdek O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida qisqacha yoritildi. Asosiy maqsad iqlim o‘zgarishning salbiy oqibatları bir davlatniniki eki ma‘lum hududga tegishli bo‘lmay bir makon, bir er kurrasida yashatgan ekanmiz, bu butun dnyo hamjamiyaning muammolaridan biri ekanligi, buni hamjihatlikda hal qilish zarurligi ilgari surilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, global iqlim, issiq davr, cho‘llanish, yashil iqtisodiyot, yashil makon.

**Kirish.** Iqlim o‘zgarishi jahonda global isish, kuchli shamol, qurg‘oqchilik, suv toshqinlari va yong‘inlar yanada ko‘proq sodir bo‘lib muzliklar erishi kuchaydi, ob-havo xodisalari, dengiz sathining o‘zgarishi. Issiq haroratning ko‘tarilishi suvning bug‘lanish koeffitsenti oshirmoqda. Xatto sizot suvlarning ham parlanishi kuchayib erning strukturasi salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Rekord darajadagi harorat isishi ko‘plab davlatlar, jumladan xavfli chegaralarda yaqinlashib qolgan Janubiy Osiyoda ulkan muammolar keltirib chiqaradi. Haroratning doimgidan 1,8 darajaga oshishi ayniqsa qishloq xo‘jaligida jiddiy tahdidlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ilgari faqat tabiiy yo‘llar bilan sug‘orilgan hududlarda sun‘iy sug‘orish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Haroratning yuqorilashi zararkunandalarning kirib kelishini rag‘batlantirmoqda, bu esa insektitsidlar va suv resurslaridan ko‘proq foydalanishga olib kelmoqda. Tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg‘oqchilik xavfi ortishi natijasida hosildorlik ko‘rsatkichlari tushib ketmoqda. Yog‘ingarchilikning kam bo‘lishi, yog‘ingarchilik bo‘lmagan kunlar soning ortishi hisobiga atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda. Isish va sovish kabi anomal hodisalarning o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo‘lishiga olib kelayapti. Bunday keskin iqlim o‘zgarishlarining sodir bo‘lishi barcha davlatlarni jiddiy tashvishga solmoqda. Chunki, iqlimning iqtisodiyotga, qishloq xo‘jaligiga bo‘lgan salbiy ta‘siri er bilan, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan davlatlarda sezilmoqda.

**Maqsad.** O‘zbekistonda harorat har yili 2 daraja ko‘tarilmoqda. Prognozlarga qaraganda, respublikada 2030 yilga borib havo harorati doimgidan 2–2,5 daraja, 2040 yillarda 4 daraja, 2080 yillarda esa 6 darajagacha ko‘tarilishi mumkin. Jahon davlatlarida chuchuk suv, o‘rmonlar, biologik xilma-xillik keskin sur‘atlarda kamayib bormoqda, er unumdorligi pasayib, tuproq holati degradatsiya (zavolga)ga uchramoqda. Sanoat chiqindilari hajmi va qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalaniishga yaroqsiz erlar maydoni kundan-kunga ko‘payib bormoqda.

Iqlimshunoslar tahliliga ko‘ra, bugun insoniyat 125 ming yillik tarixidagi eng issiq davrni boshdan o‘tkazmoqda. Sanoat rivojlangani sari atmosferaga haddan tashqari ko‘p zararli gazlar chiqarilaypti. Shu bois inson iqlim o‘zgarishida asosiy rol o‘ynamoqda.

**Materiallar.** Butun jaxonda xavf solayotgan muammolardan bo‘lgan ekologiya masalasiga davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tomonidan “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” asarida [1] juda muhimligi e’tirof etildi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ekologik omillar mohiyati atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o‘ziga xos ta’sir etuvchi ma’lum sharoitlari va elementlari majmui deb tarif berilgan[2]. Jahonda xavf solayotgan tahdidlardan ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha, butun jahon xamjimyati birgalikda bir yoqadan bosh chiqargan holda[3] hal etilishi lozimligin alohida ta’kidlash zarur. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ham “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zarurligi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqlari [4] “Evropa ittifoqi va Markaziy Osiyo bog‘liqligi: barqaror rivojlanish uchun global darvoza”dagi nutqlari; Orol bo‘yi hududlarini ko‘kalamzorlashtirish g‘oyasi, ayniqsa “Yashil makon” Prezidentimiz g‘oyalari asosida shakllantirilgan Dasturi, shuningdek, selektor yig‘ilishlarida doimiy ravishda ushbu maqsadga alohida e’tibor berilishini keltirishimiz mumkin.

**Usulublar.** Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib hamda BMT ma’lumotlariga ko‘ra, er yuzi aholisi soni “geometrik progressiya” bo‘yicha ortib bormoqda, afsuski, ularning ehtiyoji “arifmetik progressiya” bo‘yicha qondirilmoqda[5]. Hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo‘lsa, 2050 yilga borib bu raqam 2 milliard kishiga etishi taxmin qilinayotir. Ayni chog‘da, ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Ayni vaqtda dunyoning ilg‘or va rivojlanayotgan davlatlari o‘rtasidagi oziq-ovqat iste’moli bo‘yicha keskin farqlar yuzaga kelmoqda. Statistik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish asta-sekin o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon aholi sonining ko‘payib borishiga nisbatan bir tekisda yuz berayotgani yo‘q. Masalan, o‘tgan asrning 60-yillaridan buyon Hindiston, Misr, Nigeriya, Bangladesh kabi davlatlarning aholi soni taxminan uch barobar oshgan bo‘lsa-da, ekin maydonlari o‘zgarmay qoldi. Bunday holat dunyoning boshqa hududlarida ham ro‘y bermoqda. Shuningdek, oxirgi 15-20 yilda aholining oziq-ovqat iste’moli ratsionida ham sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida aholi go’shtni ko‘proq iste’mol qila boshladi. BMT mutaxassislari ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish va ularni taqsimlash bo‘yicha yondashuvni mutlaqo o‘zgartirish vaqti kelganini ta’kidlamoqda. Qolaversa, dunyo aholisini etarli oziq-ovqat bilan ta’minlashda global iqlim o‘zgarishlari va aholining ekologiyaga befarq munosabati, oziq-ovqat iste’molidagi isrofgarchilik kabi salbiy omillar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

BMTning Iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi doirasida 2023 yil 30 noyabrdan 12 dekabrga qadar BAAning Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan SOR28

sammitida davlatimiz rahbari bu borada konstruktiv quyidagi takliflar ilgari surilgan edi:

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilayotgani, mintaqada havo harorati oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'pligi, tuproq emirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylangani, ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar shular jumlasiga kiradi.

Mintaqamizda iqlim o'zgarishlariga sabab bo'luvchi eng asosiy omillaridan biri - Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, uning qurigan tubini o'rmonlashtirish maqsadida hudud aholisi farovonligini yaxshilash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Birgina misol. 2018 yil dekabr oyidan hozirgi kunga qadar Orolning qurigan tubida qariyb 2 million gektarga yaqin maydonga saksovul, cherkes, sho'r va qurg'oqchilikka chidamli boshqa o'simliklar urug'i sepildi va ko'chatlari ekildi. Ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan yashil qoplamalar – himoya o'rmonzorlari barpo etilishi Oroidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, qishloq xo'jaligi rivoji hamda aholi hayoti va faoliyatiga salbiy ta'sirini yanada yumshatish imkonini beradi.

Uchinchidan, keng ko'lamlı “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tup daraxt va buta ko'chati ekilishi ham shaharlarimiz, mahallalarimizga fayz bag'ishlovchi yangi yashil hududlar barpo etilishi bilan birga yurtimiz iqlimini mo'tadil saqlashga, pirovardida ona tabiatni asrash, aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qilishi shubhasiz.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga e'tibor qaratilgan. “Yashil makon” loyihasini kengaytirish maqsadida yil yakuniga qadar yashil bog'lar sonini 444 taga etkazish, 112 ta yirik sanoat korxonasi va unga tutash hududlarda 2,1 million tup ko'chatdan iborat “yashil belbog'” barpo etish vazifalari belgilangan.

Shuningdek bir qator mutaxassislar iqlim o'zgarishining oldini olish uchun bir qancha tavsiyalar berishmoqda. Bular — qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish; energiya samaradorligini oshirish va sohalarni energiya tejoychi texnologiyalar bilan modernizatsiya qilish; tabiatda yashillikni ko'paytirish, o'rmon yong'inlarining oldini olish, daraxtzorlarni ko'paytirish; ekologik toza qishloq xo'jaligiga o'tish; tuproq tarkibidagi organik moddalarni saqlab qolish (chunki ularning yo'qolishi to'g'ridan-to'g'ri issiqxona effektiga ta'sir qiladi); ekologik tejamkor transport turlariga o'tish.

Iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi va erlarning degradatsiyasi 2023 yilning 7- sentyabrida Samarqandda boshlangan oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiyaning asosiy mavzulari hisoblandi[6]. U O'zbekiston hukumati tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) texnik ko'magida tashkil etildi va dunyoning 32 davlatidan 620 dan ortiq ishtirokchini birlashtirdi. Ushbu tadbirda O'zbekiston Prezidentining tarbigida

aynan global iqlim o'zgarishlariga to'xtalib o'tildi, jumladan: «Bundan ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar jabr ko'rmoqda. Global iqlim o'zgarishlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimiga investitsiya hajmi kamayishi vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldirmoqda»- so'zlari yangradi. Bu borada yana Sh.Mirziyoev: “Iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri bo'lib qoldi. Bu borada vaqtida choralar qabul qilmaslik va atmosferada issiqxona gazlari miqdori ko'payishining oldini olmaslik kutilmagan hamda bashorat qilib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin” [7] - deb ta'kidladilar.

**Ilmiy uslubiy ishning natijasi.** O'zbekiston hukumati ekologik muammolarni mamlakatda o'tkazilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning umumiy jarayoni bilan qo'shib olib borayotir[8]. Xususan, bunda:

Yashil iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish.

Qayta tiklanadigan manbalarning 25 ming MVt hamda ist'moldagi ulushini 40 foizga etkazish.

Sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “Ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy etish.

3GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stanitsilarni modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish.

Ko'p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish.

Shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish.

Iqlim o'zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish.

Issiqxona gazlarining yalpi ichiki mahsulotbirligiga nisbatan 2010 yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish.

Orobo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish. Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta'sirini kamaytirish.

Orolbo'yi mintaqasida o'rmonzorlarni 2,3 millon gektarga etkazish.

Orol dengizning qurigan tubida 600 mirg gektar yashil maydonni barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,6 millon gektarga yoki hududning 80 foiziga etkazish.

“Yashil iqlim” va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq emirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million dollar qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish.

Halqaro hamkorlar bilan «Orol dengizi havzasining quyi oqimidagi degradatsiyaga uchragan erlar holatini yaxshilash» loyihasini amalga oshirish.

Iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida cho'llanish, qurg'oqchilik, chang-qum bo'ronlari va haroratning ko'tarilishiga qarshi chora sifatida jami 600 ming gektar maydonda «yashil qoplamalar» — himoya o'rmonzorlarini barpo etish.

Xavfli gidrometeorologik hodisalar to'g'risida barvaqt ogohlantirishlar darajasini 100 foizga etkazish, tog' daryolari oqimi prognozlarining ishonchligi darajasini 98 foizga etkazish.

Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan 6 075 gektar er maydonlarini rekultivatsiya qilish.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining rivojlanishi va hosildorligi haqidagi agrometeorologik prognozlarining ishonchlilik darajasini 96 foizga etkazish.

Suvsizlik va qurg‘oqchilikka chidamli, har bir hududning iqlimiga mos ekinlar, meva va uzumning yuqori hosildor navlarini yaratish va hosildorlikni 30 — 35 foizga oshirish.

**Xulosalar.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki. Iqlim tabiat xodisasi, lekin tabiat xodisaisga bugungi kunda ishlab chiqarish, er qaridagi tabiiy boyliklardan foydalanish, tabiatga, ekologiyaga turli chiqindilarning shunday chiqarib tashlanishi, yirik ishlab chiqarish sanoatidan zararli bug‘larning havoga tarqalishi, tabiiy mineral xomashyo, mineral resurslardan foydalanishda ekologiga, iqlimga salbiy ta’sirini puxta ilmiy asosida ishlab chiqilmasdan qilinayotgan sa’yi xarakterlar o‘z navbatida er kurrasi bilan, jahonda iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq global muammolari og‘ir iqlim o‘zgarishlariga sabab bo‘lmoqda[9]. Shuni unitmasligimiz, iqlim, tabiat bu barcha halqlarning milliy boyligi ekanligini anlab etishimiz uchun atmosfera havosini himoya qilish texnologiyalarini chuqur o‘rganishimiz ularni amaliyotga tatbiq qilishi bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi hozirgi global va mintaqaviy ekologik tahdidlar sharoitida o‘ta muhim hisoblanadi.

### Bibliografik ro‘yhat

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 19 b.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy, 2005. – 164 b.
3. Плеханов С.И. Солнце – это жизнь, а не батарейка // Химия и жизнь. – 2012. – № 8. – С. 2–5.
4. В ООН подсчитали, как изменилось население планеты за прошедший год. – Режим доступа: <https://officelife.media/news/59195-v-oon-podschitali-kak-izmenilos-naselenie-planety-za-proshedshiy-god>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqlari. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4633>
6. Iqlim o‘zgarishi, innovatsiyalar, sog‘lom ovqatlanish. Oziq-ovqat xavfsizligi konferensiyasida nimalar muhokama qilindi? – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/07/food-security-conference/>
7. Iqlim o‘zgarishlari — global tahdid. – URL: <https://parliament.gov.uz/oz/articles/2063>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>